

O'ZBEKISTONDAGI ARXIV TURLARI VA ULARNING FAOLIYATI

Sultanova Zuxra Shuxratovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

“Axborot-kutubxona tizimlari” kafedrasи o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistondagi arxivlar va ularning turlari shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivsi, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxivsi, O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivlari va ularning tashkil topishi, arxivning asosiy vazifalari, fondida saqlanib kelayotgan hujjatlar haqidagi ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: arxiv, kinofotofono hujjatlar, tibbiyot hujjatlar, arxivning vazifalari.

Аннотация: В данной статье представлена информация об архивах в Узбекистане и их видах, а также о Центральном государственном архиве Республики Узбекистан, Национальном архиве кинофотодокументов Узбекистана, Национальном архиве научно-технической и медицинской документации Узбекистана и их организации, основных задачах архива, документах, хранящихся в фонде.

Ключевые слова: архив, кинофотодокументы, медицинские документы, функции архива.

Abstract: This article provides information about the archives and their types in Uzbekistan, as well as the central state archive of the Republic of Uzbekistan, the National Archive of Kinofotofono documents of Uzbekistan, the National Archives of scientific and technical and medical documents of Uzbekistan and their organization, the main tasks of the archive, documents preserved in the foundation.

Keywords: archive, film and photographic documents, medical documents, archive functions.

Arxivlarning paydo bo‘lishi tarixiga nazar tashlasak, insoniyatning paydo bolishi, kishilik jamiyatiga birlashib yashashi, sivilizatsiyalarning yaratilishi va ravnaqi to‘g‘risida

guvohlik beruvchi birlamchi manbalar, bu arxeologik topilmalar, me'moriy obidalar, tarixiy buyumlar, ashylar, etnografik ma'lumotlar, yozma manbalar, arxiv hujjatlari va boshqa turdag'i moddiy va ma'naviy meros yodgorliklaridir.

Tarixga nazar tashlasak, dastlab arxiv hujjatlari hukmdor saroylari, kutubxona, mulkdor shaxs uylarida, turli ustaxona, savdo tashkilotlari, o'quv dargohida saqlangan bo'lsa, keyingi davrlarda, avniqsa o'rta asrlardan boshlab, ko'p hududlarda qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan hujjatlar uchun maxsus binolar - arxivlar qurilgan va ularning faolivati bilan bog'liq ma'lum qoidalar ishlab chiqilgan. Xozirgi davrga kelib arxiv hujjatlari nafaqat davlat boshqaruvi idoralari tegishli. halki butun xalq mulki ekanı jamiyatda e'tirof etiladi va ulardan keng omma foydalanishiga imkoniyatlar yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivı 1958-yilda tashkil topgan.

O'ZRMDAning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- arxiv yo'naliishi bo'yicha hujjatlarni jamlash;
- arxivning hisobga olish tizimi va ilmiy ma'lumot apparatini rivojlantirish va takomillashtirish;
- arxivda saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi jamg'armasi hujjatlari saqlovini ta'minlash;
- arxivning axborot bazasini kengaytirish;
- hujjatlardan foydalanish va ularni nashr qilishni tashkillashtirish;
- arxivshunoslik, arxeografiya, hujjatshunoslik sohalarida ilmiy-uslubiy amaliy yordam ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi MDA tomonidan quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

- hujjatlarni tartibga solish, ilmiy-texnikaviy qayta ishlash va ularni kelgusida saqlash uchun arxivga topshirish uchun tayyorlash;
- tashkilotlar, korxonalarining bayram sanalari haqida, hamda atoqli shaxslarning yubiley sanasi tashabbus axborotini tayyorlash;
- radio va teleko'rsatuvlarni tayyorlash;
- ekskursiyalarni o'tkazish;
- ko'rgazmalarni tashki etish;

- fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy so‘rovlari bajarish;
- jismoniy va huquqiy shaxslarning mavzuli so‘rovlari bajarish va hujjatlarini aniqlash;
- ish yuritish va arxivshunoslik muammolari bo‘yicha ilmiy ishlarni tayyorlash va chop etish;
- arxiv hujjatlarining to‘plamini nashr etish;
- arxiv hujjatlaridan nusxalarni va ko‘chirmalarni berish;
- arxiv hujjatlarini raqamlashtirish;
- arxiv ishi bo‘yicha seminarlarni, ma’ruzalarini o‘tkazish;
- arxiv ishi bo‘yicha o‘quv kurslarini o‘tkazish;

O‘zRMAFni saqlovchi muassasa sifatida 2003-yil 22 yanvarda davlat ro‘yxatidan o‘tkazgan. O‘zR MDA eng katta arxiv muassasasi hisoblanadi. Ushbu arxivda 2867 ta fond, 5141 ta yig‘ma jildlar ro‘yxati, 1 mln. 600 mingdan ortiq yig‘ma jild, 18 ta hujjat saqlovxonasi, XIII asrdan (ma’lumotlarning eng qadimiysi IX asrga tegishli) bugungi kunga qadar bolgan hujjatlar saqlanib kelmoqda. Ularni 167 mingdan ortiq saqlov birligi va 15 mln. dan ortiq kadrdan iborat sug‘urta nusxalari tashkil etadi.

O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxiv 1943-yil 18 martda Toshkent shahrida kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivsi tashkil topgan. Ushbu arxivda O‘zbekiston va Turkiston o‘lkasining XIX asrning 60 -yillaridan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan tarixiy noyob hujjatlari yig‘ilgan va saqlanib kelmoqda. Ushbu arxivda arxiv hujjallari umumiyligi hisobda 273,000 (ikki vuz yetmish uch ming) saqlov birligini tashkil etadi. Shulardan 19,257 saqlov birligi kinohujjatlar, 238,652 saqlov birligidagisi su’ratli hujjatlar, 15,185 saqlov birligidagisi ovozli hujjatlarni tashkil etadi. Ushbu arxivda badiiy ovozli hujjatlar O‘zbekiston va chet el kompozitorlari asarlari, xalq musiqalari, she’riy, nasriy va drammatik asarlar, taniqli qo‘schiqchilarining chiqishlari, xalq ijrochilar, respublika musiqa kolleksiyalari, jumladan Tamara Xonim, F.Baratova, M.Turg‘unboeva, N.Axmedova, T.Qodirov, M.Uzokov, Y.Rajabiy va boshqa ovozli yozuvlardan iborat.

Arxivda fond va yig‘ma jild tushunchalari ishlatilmaydi, yani har bir hujjat alohida saqlov birligida va alohida arxiv raqami bilan hisobga olinadi. Bu arxivda saqlanayotgan

manbalar O‘zbekiston tarixining turli davrlarini aks ettirishi bilan birga, ular yordamida o‘zbek xalqining ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyotining ham ko‘rish imkoniyatini yaratib beradi. Yuridik va jismoniy shaxslar arxivning barchasi kino, foto va ovozli hujjatlaridan foydalanish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari Milliy arxivi quyidagi xizmatlarni bajaradi:

- arxivda saqlanayotgan kino, foto va ovozli hujjatlar haqid a ma’lumot berish;
- tadqiqotchilar o‘rganishi va ishi uchun kino, foto va ovozli hujjatlarni taqdim etish;
- kino hujjatlarni video tasmaga ko‘chirib berish;
- arxiv kino-foto-fono hujjatlarini elektron shaklga o‘tkazish.

O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari milliy arxivi 1962-yil tashkil etilgan. O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari milliy arxivi fondidagi hujjatlarning umumiyligi soni 207907 tadan ortiq bo‘lib, shulardan 7778 tasi ma’muriy hujjatlar, 33059 tasi ilmiy-texnikaviy hujjatlar, 94647 tasi esa kasallik tarixi hujjatlari bo‘lgan. Shulardan ma’muriy hujjatlar 79963 ilmiy-texnikaviy hujjatlar - 34425 ta, kasallik tarixi 94647 tani tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika va tibbiyat hujjatlari milliy arxivida hujjatlar saqlov xonalarinida hujjatlar maxsus hujjat saqlov anjom (stelaj)larida va maxsus tayyorlangan quti (korobka)larda joylashtirilgan. Hujjatlar ketma-ket raqamlashtirilib quti(korobka)larga joylashtirilgan. Qutilar esa yilma yil joylashtiriladi. Hujjatlar qutilarga joylashtirilganidan so‘ng qutilar yuziga maxsus qog‘ozlarda hujjat qaysi muassasa yoki korxonaga tegishli ekanligi yozib qo‘yiladi. Hujjat saqlanayotgan xona harorati bir xilda saqlanib turishi alohida ahamiyat kasb etadi. Havo haroratini o‘lchovchi asbob termometr, namlikni o‘lchovchi asbob barometr deyiladi. Hujjatlar saqlanayotgan xona harorati 15 – 18 gr namlik esa 50 – 55 % bo‘lishi lozim. Hujjatlar saqlanayotgan xonaga eng asosiysi quyosh nuridan saqlash lozim. Shuning uchun xona derazalariga quyosh qaytaradigan oynalar o‘rnatalgan.



Arxiv fondlarining ko‘rinishi


Jahonni etakchi davlatlarida raqamli arxivlar

Bugungi kunda jahonning etakchi davlatlari raqamli texnologiyalar yordamida arxivlarni saqlash va boshqarish bo‘yicha ilg‘or tajribalarga ega. Raqamli arxivlar hujjatlar, tarixiy ma’lumotlar va madaniy merosni elektron shaklda saqlash, ularga tezkor kirish va uzoq muddatli himoya qilish imkonini beradi.

Jahonning etakchi davlatlarida raqamli arxivlar (ya’ni, elektron hujjatlar arxivi) zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan bo‘lib, ilmiy-tadqiqot ishlari, tarixiy hujjatlar, madaniy meros va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq ma’lumotlarni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida ayrim rivojlangan davatlarning raqamli arxiv tizimlari haqida qisqacha ma’lumot beramiz:

AQSh–National Archives and Records Administration (NARA)


<https://www.archives.gov>. AQShning asosiy davlat arxivi bo‘lib, rasmiy hujjatlar, tarixiy yozuvlar va fotosuratlarning katta qismini raqamlashtirgan. AQShdagi raqamli arxivlar **NARA** orqali boshqariladi. NARA ochiq arxiv ma’lumotlar portalı hisoblanadi.



The screenshot shows the homepage of the National Archives. At the top, there are five main navigation links: "RESEARCH OUR RECORDS", "VETERANS' SERVICE RECORDS", "EDUCATOR RESOURCES", "VISIT US", and "AMERICA'S FOUNDING DOCUMENTS". Below these, there is a large banner for the "DECLARATION 250 NATIONAL ARCHIVES" anniversary, featuring a historical document and the text "We the People". To the right of the banner, there is a "Archives News" section with links to "African American History Month Resources at the National Archives" and "Historical Arlington Cemetery Records Arrive at National Archives". At the bottom of the page, there is a search bar labeled "Search Archives.gov" and a "Search" button.


Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy arxivsi

Internet Archive www.archive.org. Eng katta ochiq ma'lumotlar omborlaridan biri. Kitoblar, video, audio, veb-sahifalar va boshqa raqamlı resurslarni saqlaydi.



The screenshot shows the homepage of the Internet Archive. At the top, there is a navigation bar with links for "WEB", "TEXTS", "VIDEO", "AUDIO", "SOFTWARE", and "IMAGES". On the right side of the top bar, there are "SIGN UP | LOG IN" and "UPLOAD" buttons. Below the top bar, there is a search bar with the placeholder "Search the history of over 916 billion web pages on the Internet." In the center, there is a "WayBack Machine" logo and a search bar with the placeholder "Enter URL or keywords". On the left side, there is a large icon of a classical building. In the middle column, there is text about the Internet Archive being a non-profit library of millions of free texts, movies, software, music, websites, and more. Below this text, there are icons for different file types: 916B, 43M, 14M, 13M, 3M, 1.2M, 5.1M, 270K, and 2.6M. At the bottom of the middle column, there is a "Search" button and an "Advanced Search" link. On the right side, there is a "Archive News" section with links to "Public Domain Spotlight: Rhapsody in Blue", "Vanishing Culture: Punch Card Knitting", and "Update on the 2024/2025 End of Term Web Archive". There is also a "More posts" link.

Internet Archive www.archive.org sahifasining ko'rinishi



Internet Archive www.archive.org sahifasida top collection bo‘limi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahonni etakchi davlatlaridagi raqamli arxivlar fondidan foydalanuvchi o‘ziga kerakli ma’lumotlarni 24/7 vaqt mobaynida dunyoning istalgan yeridan istalgan arxiv fondidagi ma’lumotlarni olishi mumkin.

References:

1. Arxivshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Turon-Iqbol, 2018
2. X.A. Buriyeva, A.Y. Nazarov, B.B. Abbasov. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti / O‘quv qo‘llanma.-Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi”, 2020.
3. A.Y. Nazarov.Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari: O‘quv qo‘llanma.—Toshkent:Bookmany print, 2023.-160 bet
4. Katja Muller. Digital archives and Collections.-New York:Berghahn,2021.